

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4374,3 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 4006,1 mlrd. so‘mni (102,4 %), o‘rmon xo‘jaligi 271,2 mlrd. so‘mni (110,3 %), baliqchilik xo‘jaligi 97,0 mlrd. so‘mni (108,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 2,9 % ni tashkil qildi.



4374,3
mlrd. so‘m




01
4006,1 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar


02
271,2 O‘rmon xo‘jaligi

03
97,0 Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot
(xizmat)lar hajmining o‘sish sur‘ati**



**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**



2023 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (755,4 mlrd. so‘m) va To‘rtko‘l (551,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq (70,5 mlrd. so‘m) tumani va Nukus shahar (27,7 mlrd. so‘m)larni keltirib o‘tish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig‘imi. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 115,4 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari barcha toifadagi xo‘jaliklarda 28,4 ming tonna kartoshka, (2022 yilga nisbatan 2,8 foizga ko‘p), 49,9 ming tonna sabzavot (3,6 foizga ko‘p) yig‘ib olindi, 7,8 ming tonna poliz ekinlari (13,9 foizga ko‘p), 10,8 ming tonna meva va rezavorlar (3,5 foizga ko‘p) va 0,4 ming tonna uzum (11,4 foizga ko‘p) yetishtirildi.

2023 yilning yanvar-iyunida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda
Jami don	85 659	94,0	19 716	100,8	10 047	2,3 m.
Kartoshka	7 435	112,1	20 883	100,4	91	45,0
Sabzavotlar	14 118	113,0	33 726	103,0	2 014	69,5
Poliz	4 024	127,2	3 647	102,6	89	93,7
Mevalar va rezavorlar	3 579	107,7	6 761	101,2	453	105,6
Uzum	120	109,1	165	103,1	67	145,7




Dehqonchilik


2023 yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1213,4 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 30,6 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming tonna



O‘sish sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %




● Fermer xo‘jaliklari



● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvch tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna.



Sabzavotlar



**Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
% da**



2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 49,9 ming tonna sabzavotlar (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 28,4 ming tonna kartoshka (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 73,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %
da





2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7,8 ming tonna poliz (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 13,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 51,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



Mevalar va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 10,8 ming tonna mevalar va rezavorlar (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 62,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, tonna



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,
% da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 352 tonna uzum (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 11,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 46,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



*Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik xo‘jaligi*




Chorvachilik

2023 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2754,8 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 69,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,9 ming tonna go‘sh (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,3 % ga ko‘p), 139,2 ming tonna sut (2,7 % ga ko‘p), 183,8 mln. dona tuxum (2,2 % ga ko‘p) va 3938,9 tonna baliq (107,9 %) ovlandi.




Go‘sh t (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O‘shish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,9 ming tonna go‘sh t (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sh t ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sh t ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha go‘sh t (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O‘sinh sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 139,2 ming tonna sut (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 183,7 mln.dona tuxum (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 85,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O‘sinh sur‘ati, % da




*Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi*




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3938,9 tonna (2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 107,9 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 45,0 foizi fermer xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ovlangan
baliq hajmi, tonna**




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 13,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 83,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 25,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 71,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 8,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 81,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 10,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**


2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1188,8 ming boshga yetdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2022 yilning 1 iyuliga nisbatan 19,7 ming boshga (1,7 %) ko‘paydi.


- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2023 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 345,4 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2022 yilning 1 iyuliga nisbatan 5,3 ming boshga (1,5 %) ko'paydi.


- sigirlar bosh sonining 90,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh




Qo‘y va eshkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- qo‘y va eshkilarning umumiy bosh soni 1226,1 ming boshga yetdi.
- qo‘y va eshkilarning bosh soni 2022 yilning 1 iyuliga nisbatan 32,9 ming boshga (2,8 %) ko‘paydi.
- qo‘y va eshkilar bosh sonining 83,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qo‘y va eshkilarning bosh soni, ming bosh




Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- otlarning umumiy soni 27432 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2022 yilning 1 iyuliga nisbatan 425 boshga (101,6 %) ko'paydi.
- otlar bosh sonining 71,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha otlarning bosh soni, bosh




Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 5088,9 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2022 yilning 1 iyul ig nisbatan 222,0 ming boshga (4,6 %) ko‘paydi.
- parrandalar bosh sonining 81,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh

